
OQ YO'L SENG A BITIRUVCHI

Inson yangi hayot ostonasiga qadam qo'yishi nafaqat maktabda balki maktabdan keyingi ta'limda ham o'ziga xos hayajon bilan kechadi. Bugun Farg'ona politexnika instituti huzuridagi Toshloq texnik xizmat ko'rsatish texnikumida „Oq yo'l senga bitiruvchi" nomli tadbir o'tkazildi.

Unda so'z olganlar davlatimiz rahbarining katta e'tibori va g'amxo'rliklari natijasida bilim va kasb-hunarni egallash imkoniyatiga ega bo'lgan yoshlarimizning mustaqil hayotda ham o'z o'rinini topib, davlatga, jamiyatga nafi tegadigan mutaxassislar bo'lib yetishishlariga umid bildirib, bitiruvchilarning kelgusi ishlarida omad va zafarlar tiladilar.

Tadbir davomida texnikumni bitirgan o'quvchilarga diplomlar, a'lo baholarga tamomlab, o'quvchilar o'rtasida alohida o'rnak ko'rsatgan o'quvchilarga va ularning ota - onalariga tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.

Samimiy tilaklar va ulkan hayajon bilan o'tgan tadbir, bitiruvchilar qalbida butun umr muhrlanib qolgani shubhasiz.

2023-07-15 14:50:25